



UO‘T: 332.33(575.1)

JIZZAX VILOYATI YER FONDI VA UNDAN FOYDALANISH

G‘ofirov Azim Jumayevich 

“Agrokimyo va tuproqshunoslik” kafdrasi dotsenti

e-mail: a.gofirov@tdau.uz

Eshqulov Rustam 

“Yer resurslaridan foydalanish va boshqarish” magistratura mutaxassisligi
magistranti

e-mail: rustameshqulov92@gmail.com

Toshkent davlat agrar universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Jizzax viloyati yer fondining hozirgi holati tahlil qilinib, 2015–2024-yillar davomida uning maqsadli yo‘nalishi, foydalanish shakllari hamda yerga egalik tizimidagi o‘zgarishlar qiyosiy o‘rganilgan va asosiy rivojlanish tendensiyalari aniqlangan. Shuningdek, mazkur davrda Jizzax viloyati yerlarining holati va ulardan foydalanish dinamikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Davlat kadastrlari palatasining milliy hisobotlari asosida tahlil qilingan. Yakunda yer fondi toifalari hamda ulardan samarali foydalanish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Yer fondi, yer toifasi, yer maydoni, yerlarning holati va ulardan foydalanish, sug‘oriladigan haydalma yer, qishloq xo‘jaligi yerlari, o‘zgarishlar, tendensiyalar.

Аннотация. В данной статье анализируется современное состояние земельного фонда Джизакской области, сравнительно изучаются его целевое назначение, формы использования и изменения в системе землевладения за 2015–2024 годы, а также выявляются основные тенденции развития. Также на основе национальных отчетов Палаты государственных кадастров Агентства по кадастру при Министерстве экономики и финансов были проанализированы состояние и динамика использования земель Джизакской области за этот период. В заключение даны предложения и рекомендации по категориям земельного фонда и их эффективному использованию.

Ключевые слова: Земельный фонд, категория земель, площадь земель, состояние земель и их использование, орошаемые пахотные земли, сельскохозяйственные земли, изменения, тенденции.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

Abstract. This article analyzes the current state of the Jizzakh region's land fund, comparatively examines its target orientation, forms of use, and changes in the land ownership system during 2015-2024, and identifies key development trends. Additionally, the state and dynamics of land use in the Jizzakh region during this period were analyzed based on national reports from the Chamber of State Cadastres of the Cadastre Agency under the Ministry of Economy and Finance. In conclusion, proposals and recommendations were provided regarding the categories of the land fund and their effective use.

Keywords: Land fund, land category, land area, state of lands and their use, irrigated arable land, agricultural lands, changes, trends.

KIRISH

Yer resurslari insoniyat taraqqiyotining moddiy asosi bo'lib, global miqyosda muhim strategik ahamiyatga ega. Yer fondi — quruqlik maydonlari yig'indisi bo'lib, umumiy maydoni 149 mln km² ni tashkil etadi. Uning 37–38 % qishloq xo'jaligida (11–12 % haydaladigan yerlar, 25–26 % yaylov va o'tloqlar), 31 % o'rmonlar hissasiga to'g'ri keladi, qolgan qismi esa cho'l, tog', muzlik va infratuzilma hududlaridan iborat.

Aholi sonining ortishi yer resurslariga bosimni kuchaytirmoqda: 2025-yilda aholi soni 8 mlrd dan oshib, jon boshiga haydaladigan yer maydoni 0,18–0,20 gektargacha kamaydi, bu esa XX asr o'rtalariga nisbatan qariyb 2 barobar qisqarishni bildiradi. Natijada yer resurslaridan yanada intensiv foydalanish zarurati yuzaga kelmoqda.

Yer degradatsiyasi global muammo bo'lib, qariyb 2 mlrd gektar (15 %) yer zararlangan. Har yili 10–12 mln gektar yer eroziya, sho'rlanish va cho'llanish tufayli foydalanishdan chiqadi, qurg'oqchil hududlarda bu jarayon tezlashmoqda. Ushbu masalalar United Nations Barqaror rivojlanish maqsadlarida, xususan 15-maqsadda muhim o'rin tutadi. FAO ma'lumotiga ko'ra, sug'oriladigan yerlar (330 mln gektar) global oziq-ovqat ishlab chiqarishining 40 % ini ta'minlaydi. [10].

O'zbekiston Respublikasi yer resurslari milliy iqtisodiyotning muhim tabiiy boyligi bo'lib, ayniqsa qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanadi. Yer fondining katta qismi qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan bo'lib, sug'oriladigan yerlar yuqori hosildorligi bilan ajralib turadi. Biroq yerlarning cheklanganligi va sifati bilan bog'liq muammolar samaradorlik, tejamkorlik hamda ekologik muvozanatni ta'minlashni talab etadi.

Mamlakatda olib borilayotgan agrar islohotlar yer munosabatlarini takomillashtirish va resurslardan barqaror foydalanishga qaratilgan. Shu bois yer fondini statistik asosda tahlil qilish, degradatsiya muammolarini aniqlash va samarali foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

MATERIALLAR VA USULLAR

Shuni ta'kidlash kerakki, bir qator ilmiy ishlarni o'rganish bo'yicha ko'p yillik tajribaga asoslangan manbalar [4,5,6,7,8], yer fondi va undan foydalanishda, qishloq xo'jaligi yerlaridan, ayniqsa sug'oriladigan ekin maydonlaridan samarali foydalanishga katta e'tibor beriladi: hosil unumdorligi qanchalik yuqori bo'lsa, demak foydalanish darajasi shunchalik yuqori bo'ladi bu yer maydoni, mehnat va moddiy resurslar bilan bog'liq. Shuning uchun ham yerdan samarali foydalanish monitoring ma'lumotlari muayyan hududda faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklari tomonidan yer va boshqa resurslardan foydalanishning hozirgi darajasini to'g'ri baholash uchun zarur. Buni hisobga olgan holda tadqiqotda ilmiy kuzatish, tahlil qilish, monografik tadqiqotlar, hisoblash va sintez qilish usullari keng qo'llanildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Jizzax viloyatida sug'oriladigan yerlar, yaylovlar va o'rmon fondi yerlaridan to'g'ri foydalanish masalalari dolzarb hisoblanadi. So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, ularni muhofaza qilish hamda yerlarning degradatsiyasini oldini olishga qaratilgan.

Ushbu maqolada Jizzax viloyatining yer fondi tarkibi, undan foydalanish darajasi, mavjud muammolar hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, yer resurslaridan oqilona foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilib, hududda barqaror yer boshqaruvini ta'minlash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Jizzax viloyati O'zbekistonning markaziy qismida joylashgan bo'lib, o'zining tabiiy-iqlim sharoiti, yer resurslarining xilma-xilligi hamda qishloq xo'jaligi salohiyati bilan ajralib turadi. Mazkur hududda yer fondi tarkibi va undan oqilona foydalanish masalalari iqtisodiy rivojlanish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda ekologik barqarorlikni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. 1973 yil 28 dekabrda tashkil etilgan. Shimoliy sharqdan Qozog'iston Respublikasi va Sirdaryo viloyati, janubiy - g'arbdan Samarqand, Navoiy viloyatlari, janubiy-sharqdan Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh. Maydoni 21,1783 ming km². Aholisi 2026-yil 1-yanvar 1566,9 ming kishi. Jizzax viloyatida 12 ta tuman (Arnasoy, Baxmal, Do'stlik, Sharof Rashidov, Zarbdor, Zafarobod, Zomin, Mirzacho'l, Paxtakor, Yangiobod, Forish, G'allaorol), 7 ta shahar (Gagarin, Dashtobod, Do'stlik, Jizzax, Marjonbuloq, Paxtakor, G'allaorol), 8 ta shaharcha (Bo'ston, Zarbdor, Zafarobod, Zomin, O'smat, Uchquloq, Yangiqishloq, Qo'ytosh), 95 ta qishloq fuqarolari yig'ini bor. Markazi - Jizzax shahri.

Iqlimi keskin kontinental. Yillik o'rtacha harorat 12,5°. Yanvarda harorat — -3-7° gacha pasayadi, iyulda 27—30° ga yetadi. Vegetasiya davri 210-240 kun. Viloyatning turli qismlarida yog'in miqdori turlicha. Jizzax o'rtacha yillik yog'in miqdori 230 mm. Viloyatning tuproqlari asosan sug'oriladigan to'q tusli bo'z tuproqlar sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar, sug'oriladigan och tusli bo'z tuproqlar keng tarqalgan. Viloyat bo'yicha sug'oriladigan qishloq xo'jalik yerlarining 84492





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

ga sho'rlanmagan, 183893 ga kuchsiz sho'rlangan, 31727 ga o'rtacha sho'rlangan, 3782 ga kuchli sho'rlangan tuproqlar hisoblanadi. [9].

Qishloq xo'jaligi yerlari 1357,2 ming ga. shu jumladan ekin yerlari 507,3 ming ga, pichanzor va yaylovlar 796,2 ming ga. ko'p yillik daraxtzorlar 42,4 ming ga va bo'z yerlar 11,3 ming gani tashkil qiladi.

2025 yil 1 yanvar holatiga Jizzax viloyatining ma'muriy chegarasidagi umumiy yer maydoni 2117,9 ming gektarni tashkil qilib, shundan jami sug'oriladigan ekin yerlar 260,7 ming gektarni yoki umumiy yer maydonining 12,3 foizini tashkil qiladi. Viloyat yer fondining toifalari bo'yicha tavsifini keltiradigan bo'lsak 2025 yilda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar 1469,1 ming gektar bo'lib umumiy yer maydonining 69,4 % ni tashkil qilgan, aholi punktlarining yerlari 10,4 ming gektar 0,49 %, sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar 29,1 ming ga 1,37 %, tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreasiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar 79,9 ming ga 3,77 %, tarixiy madaniy ahamiyatga molik yerlar 1,9 ming ga 0,09 %, o'rmon fondi yerlari 252 ming ga 11,9 %, suv fondi yerlari 247,5 ming ga 11,69 %, zaxira yerlar 28 ming ga 1,32 % ni tashkil qiladi. [1,2,3].

2025 yilda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar 1469,1 ming gektarni tashkil qilib 2015 yilga nisbatan 22,3 ming ga, aholi punktlarining yerlari 47 ga, sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar 3,254 ming ga, tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreasiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar 15,536 ming ga, tarixiy madaniy ahamiyatga molik yerlar 18 ga, zaxira yerlar 22,565 ming ga ko'paygan o'rmon fondi yerlari 1,026 ming ga, suv fondi yerlari 62,759 ming ga kamaygan.

Viloyat bo'yicha fermer xo'jaliklari soni 7614 tani tashkil qilib, ularga birlashtirib berilgan yerlar maydoni 527 ming gektarni tashkil qiladi. Ularga birlashtirib berilgan yerlarning 190 ming gektari sug'oriladigan va 165 ming ga lalmi haydalma yerlar. Ko'p yillik daraxtzorlar maydoni 17 ming ga, shundan 12 ming ga bog'lar, 4 ming ga uzumzorlar, 1 ming ga tutzorlar, 3 ming ga boz yerlar, 131 ming gani pichanzor va yaylovlar, 21 ming ga qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar tashkil qiladi.

Amalga oshirilgan islohotlar natijasida qishloq xo'jaligi tarmoqlari ham jadal rivojlanmoqda. 2020 yilda 11,2 trln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2024 yilda 20,2 trln. so'mlik mahsulotlar yetishtirildi. Viloyatda so'nggi 5 yilda 81,9 ming gektar, jumladan, 70,9 ming gektar lalmi-yaylov yer maydonlari o'zlashtirildi, 11 ming gektar suvli yerlar qishloq xo'jaligida qayta foydalanishga kiritildi. Faqatgina o'zlashtirilgan yerlardan 2024 yilda 230 ming tonna sabzavot, 203 ming tonna poliz, 23,4 ming tonna dukkakli, 6,2 ming tonna moyli, 673,7 ming tonna ozuqa mahsulotlari hosili olindi.

Jizzax viloyatida sug'oriladigan ekin yerlar 2015 yil 1 yanvardan 2024 yil 1 yanvargacha 0,6 ming gektarga kamaygan, bunga asosiy sabab aholi yashash maydonlarining ko'payishi deyishimiz mumkin. Lalmi haydalma va yaylov yer





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

maydonlari o'zlashtirilishi natijasida sug'oriladigan ko'p yillik daraxtzorlar maydoni 3,2 ming ga oshgan. Ko'p yillik daraxtzorlar oxirgi 10 yil ichida 27,2 ming gektarga ko'paygan. Jami qishloq xo'jalik yerlari 91,6 ming ga oshgan. Qishloq xo'jalik korxonalari, fermer xo'jaliklari soni va ularga birlashtirib berilgan yerlar maydoni 2015 yil 1 yanvar holatida viloyatda 6618 ta fermer xo'jaliklari mavjud bo'lib ularga birlashtirib berilgan yerlar maydoni 502,3 ming gektarni tashkil etgan va har bir fermer xo'jaliklarining o'rtacha yer maydoni 75,9 gektarni tashkil qilgan. 2015 yildan 2025 yilgacha bo'lgan davrda fermer xo'jaliklari yer maydonlarini optimallashtirish natijasida 996 taga oshgan va fermer xo'jaliklarining o'rtacha yer maydoni 69,2 gani tashkil etib 6,7 gektarga kamaygan. Fermer xo'jaliklariga birlashtirib berilgan yer maydonlari 27,7 ming gektarga ko'paygan. Ekin maydonlari bo'yicha fermer xo'jaliklariga birlashtirib berilgan yerlar 2015 yilda 243,1 ming gektar sug'oriladigan va 177,8 ming ga lalmi haydalma yerlar tashkil qilgan bo'lsa 2025 yilda 190 ming gektar sug'oriladigan va 165 ming ga lalmi haydalma yerlar tashkil qilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Yer resurslari global miqyosda cheklangan va strategik ahamiyatga ega bo'lib, aholi sonining ortishi natijasida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan haydaladigan yer maydonining keskin kamayishi ularni yanada samarali va intensiv boshqarishni zaruratga aylantirmoqda. Bu esa zamonaviy agrotexnologiyalar va resurs tejamkor yondashuvlarni joriy etishni talab etadi.

2. Yer degradatsiyasi (eroziya, sho'rlanish, cho'llanish) global va mintaqaviy darajada qishloq xo'jaligi barqarorligiga jiddiy tahdid solmoqda. Xususan, Jizzax viloyatida sug'oriladigan yerlarning ma'lum qismi sho'rlanganligi yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va ekologik muvozanatni ta'minlash choralarini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

3. Jizzax viloyati yer fondi tarkibida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning yuqori ulushi hududning agrar ixtisoslashuvini belgilaydi. So'nggi yillarda yer maydonlarining kengayishi va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish hajmining oshishi yer resurslaridan foydalanish samaradorligi ortayotganini ko'rsatadi, biroq bu jarayon tabiiy resurslar balansining (o'rmon va suv fondi yerlari qisqarishi) buzilishi hisobiga yuz berayotganini inobatga olish lozim.

4. Yer resurslaridan barqaror foydalanishni ta'minlash uchun yer fondini ilmiy asosda boshqarish, monitoring tizimlarini takomillashtirish, fermer xo'jaliklari faoliyatini optimallashtirish hamda yerlarni raqamlashtirish asosida boshqaruv mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu choralar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka erishishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasining "O'zbekiston Respublikasi yer resurslarining holati to'g'risida Milliy hisobotlari, 2014, 2015, 2016, 2017, 2018, 2019, 2020 yillar
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qomitasi huzuridagi kadastr agentligining davlat kadastrlar palatasi O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari holati to'g'risida milliy hisobot. T.: 2021, 2022
3. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligining davlat kadastrlar palatasi O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari holati to'g'risida milliy hisobot. T.: 2023, 2024, 2025.
4. S. Avezbayev, S. Voklov, Yer tuzish loyihalash. Darslik, Toshkent: Yangi asr avlodi, 90-bet. 784, (2002)
5. Sadulla Avezbaev, Oybek Soatov and Sayfiddin Sharipov. Study of modern solutions for improving land preparation works on agricultural land in Uzbekistan. E3S Web of Conferences 590, 04005 (2024)
6. Khudoyberdi Abdivaitov. An overview of land fund categories distribution in Surkhandarya, Uzbekistan. E3S Web of Conferences 227, 01004 (2021) GI 2021
7. Q. Rahmonov, Sh. Norboyev, Z. Muqumov, Yer resurslarini boshqarish. Darslik, TIAME, b. 157, (2018)
8. С.Волков. Основы землеустройства. Учебники и пособия для студентов высших учебных заведений. М.: С. 53-59. (2015)
9. <https://cyberleninka.ru/article/n/tuproq-sho-rlanishiga-suv-resurslarining-ta-sirini-baholash-jizzax-viloyati-misolida>
10. <https://uzbekistan.un.org/uz/sdgs>